

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV
XO'JALIGI VAZIRLIGI
TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA
INSTITUTI**

“IQTISODIY NAZARIYA ASOSLARI” kafedrası
“IQTISODIY NAZARIYASI” fanidan

Kurs ishi

Mavzu: Yer rentasi va uning turlari. Agrar sohaning milliy
iqtisodiyotda tutgan o'rne

Bajardi: Iqtisod fakulteti 1/2 guruh
talabasi Hakimov Islom
Tekshirdi: Nigmadjonov U.X.

**Kurs ishi taqrizga
topshirilgan sana**
“__” __ 20__y.

**Kurs ishi taqrizdan
qaytarilgan sana**
“__” __ 20__y.

**Kurs ishi himoya
qilingan sana**
“__” __ 20__y.

Baho “__” __

(imzo)

(imzo)

Komissiya a'zolari:

Toshkent-2014

Mavzu :Yer rentasi va uning turlari. Agrar sohaning milliy iqtisodiyotda tutgan o' rni

Reja:

Kirish	3
Asosiy qism.....	5
1. Qishloq xo'jaligining respublika iqtisodiyotida tutgan o'rni.....	5
2. Yer - maxsus iqtisodiy resurs. Renta to'g'risidagi nazariyalar.....	7
3. Yer rentasi va uning turlari.....	9
4. O'zbekistonda agrar islohotlar va ularni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari.....	18
Xulosa.....	25
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	27

Kirish

Mustaqillik sharofati bilan O'zbekiston Respublikasi xalq xo'jaligining asosiy tarmog'i bo'lgan agrar sohani rivojlantirishda qator iqtisodiy islohotlar olib borildi. Qishloq xo'jaligida mulkchilikka asoslangan erkin tovar ishlab chiqaruvchi subyektlar shakllandi. Agrar sohadagi xo'jalik yuritishning bu turli shakllari kooperativ(shirkat), fermer, dehqon xo'jaliklari bo'lib, respublika qonunchilik organlari tomonidan ularning huquqiy asoslari yaratilib, xalq muhokamasidan so'ng qonuniy asos sifatida amaliyotda o'z ijobiy natijalarini bermoqda. Muhtaram Prezidentimiz I. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi dasturlarining asosi bo'lgan bozor va bozormunosabatlari asosida har bir tarmoqni rivojlantirish orqali yuqori samarali natijalarga erishish ko'zda tutilgan. Ayniqsa, agrar tarmoqni rivojlantirishda bu dasturning bajarilishi o'z samarasini berib kelmoqda. Avvalo, dehqonning ishlab chiqarishga va mulkka egalik hissining ortishi, erkin iqtisodiy faoliyat yuritishi, daromad olishi, uni o'z imkoniyatlarida erkin taqsimlashi hamda tasarruf etish imkoniyati yaratildi. Respublika agrar sohasida faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklari boshqa subyektlarga nisbatan, amaliyotda o'zining bir qancha ijobiy hamda iqtisodiy ustunliklarini ko'rsatdi. Bu esa bozor munosabatlarida qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish va uning samaradorligini oshirishdagi afzalliklari bilan bugungi istiqbolli xalq xo'jalik yo'nalishiga mos kelishini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 24-martdagi «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida»gi PF-3226-sonli Farmoni qabul qilinib, unda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish ustuvor yo'nalish qilib belgilandi. Farmonni amaliyotga tatbiq qilish bo'yicha fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish ko'zda tutildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 27-oktabrdagi PF-3342-sonli«2004-2006- yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida»gi Farmoniga asosan, Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-oktabrdagi

476-sonli«2004-2006- yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi va 2004-yil 24-dekabrdagi 607-sonli «2005-2007- yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi2007- yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorlari qabul qilindi. Ushbu qarorlar bilan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarning asosiy shakli sifatida fermer xo‘jaliklarini tashkil etish va ularning faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, qishloqda bozor infratuzilmasini kompleks rivojlantirish asosiy masala qilib belgilangan.

Iqtisodiy islohotlar nafaqat qishloq xo‘jaligi, unga xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlar, mahsulotni qayta ishlovchi sohalar, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma bo‘g‘inlari va tashqi savdo sohalarini isloh qilishni ham o‘z ichiga oladi.Bizning respublikamiz iqtisodiyotida agrar sektor muxim o‘rin tutadi.Qishloq ho‘jaligi mahsulotlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 16% dan ko‘p.Iqtisodiy faol aholining 41% dan ortig‘i agrar sektorda band. Ko‘rinib turibdiki, agrar sektorga hos muammolarni o‘rganish ayniqsa bizning respublikamiz uchun muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism

1. Qishloq xo'jaligining respublika iqtisodiyotida tutgan o'rni

Avvalo, qishloq xo'jaligining iqtisodiyotda tutgano'rni haqida gapirishdan oldin quyidagilarga e'tibor qarataylik. 2013 yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2000 yilga nisbatan 2,3 barobar ko'paydi. Faqat o'tgan yilning o'zida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 6,8 foizga, jumladan, dehqonchilik – 6,4 foizga, chorvachilik – 7,4 foizga o'sdi.

Aytish kerakki, izchil yuqori o'sish sur'atlari bilan birga, yalpi ichki mahsulotning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Masalan, 2000 yilda bu boradagi ko'rsatkich 30,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilda faqatgina 16,8 foizni tashkil etdi.

Buni avvalambor iqtisodiyotimizda amalga oshirilayotgan chuqur tarkibiy o'zgarishlarning, mamlakatimiz bir paytlardagi agrar respublikadan bosqichma-bosqich ravishda sanoati rivojlangan zamonaviy davlatga aylanib borayotganining yaqqol tasdig'i sifatida qabul qilishimiz darkor.

Qishloq xo'jaligining o'zida keng ko'lamli o'zgarishlar va sifat jihatdan yangilanishlar yuz bermoqda.


Yurtimizda ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo'jaligi ekinlarini rayonlashtirish borasida har tomonlama puxta o'ylangan siyosat olib borilayotgani eng muhim xomashyo va eksportbop mahsulot bo'lmish paxta etishtirishning nisbatan barqaror hajmini saqlagan holda, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishni bir necha barobar ko'paytirish imkonini berdi. O'tgan 2013 yilda mirishkor dehqon va fermerlarimizning fidokorona mehnati bilan misli ko'rilmagan natijalarga erishildi – 7 million 800 ming tonna g'alla, 8 million 400 ming tonna sabzavot etishtirildi. Mamlakatimizning ulkan xirmoniga 3 million 360 ming tonnadan ortiq paxta xomashyosi etkazib berildi.

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarga alohida to‘xtalmoqchiman.

Qishloq xo‘jaligining o‘zida keng ko‘lamli o‘zgarishlar va sifat jihatdan yangilanishlar yuz bermoqda. Yurtimizda ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo‘jaligi ekinlarini rayonlashtirish borasida har tomonlama puxta o‘ylangan siyosat olib borilayotgani eng muhim xomashyo va eksportbop mahsulot bo‘lmish paxta etishtirishning nisbatan barqaror hajmini saqlagan holda, boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari etishtirishni bir necha barobar ko‘paytirish imkonini berdi. Eng muhimi, xalqimizni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘liq ta‘minlashga zamin tug‘dirdi, kerak bo‘lsa, ularni chet mamlakatlarga eksport qilishga imkon bermoqda. Xususan, g‘alla etishtirish 2000 yilga nisbatan 2 barobar, kartoshka – 3,1 marta, sabzavot – 3,2 barobar, uzum – 2 marta, go‘sht va sut – 2,1 karra, tuxum – 3,4 barobar oshdi. O‘tgan 2013 yilda mirishkor dehqon va fermerlarimizning fidokorona mehnati bilan misli ko‘rilmagan natijalarga erishildi – 7 million 800 ming tonna g‘alla, 8 million 400 ming tonna sabzavot etishtirildi. Mamlakatimizning ulkan xirmoniga 3 million 360 ming tonnadan ortiq paxta xomashyosi etkazib berildi.

Mahsulot turlari	1991 yil	2011 yil	2011 yil 1991 yilga nisbati. %
Meva	24,0	60,1	250,4
Uzum	24,0	35,1	146,2
Sabzavot	138,6	225	162,3
Kartoshka	15,1	60,5	400,6
Poliz	39,0	42,0	107,6

Qishloqxo`jaligirivojlanishiningasosiy makroiqtisodiyko`rsatkichlari



2. Yer maxsus iqtisodiy resurs. Renta to'g'risidagi nazariyalar

Malumki, 1924-yildagi yer-suv islohatidan so'ng sobiq ittifoq hududida yerga xususiy mulk bekor qilinib, u umum xalq mulki deb elon qilingan edi. Ayni paytda mustaqillikka erishganimizdan so'ng mamlakatimizda yer davlat mulki bo'lib, u uzoq muddatga ijaraga berilyapti. Yerning boshqa ishlab chiqarish vositalaridan farqi shundaki, undan foydalanish jarayonida u yeyilmaydi, eskirmaydi. Aksincha, agarundan to'g'ri foydalanilsa, uning unumdorligi oshadi.

Yerning hosil berish qobiliyatiga tuproq unumdorligi deyiladi. U tabiiy yoki iqtisodiy bo'lishi mumkin. Uzoq yillar davomida kishilarning aralashuvisiz, tabiiy o'zgarishlar natijasida yerning ustki qatlamida o'simlik oziqlanishi mumkin bo'lgan turli moddalarning vujudga kelishi yerning tabiiy unumdorligi deyiladi. Agar tuproq unumdorligi kishilarning tabiatga ta'siri natejasida, ya'ni tuproq tarkibi va dehqonchilik usullarini yaxshilash sun'iy yo'l bilan, masalan, yerni organik va kimyoviy o'g'itlash, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, ilmiy asoslangan sug'orish, irrigasiya va meliorasiya kabi ishlab chiqarish usullarini joriy qilish hamda boshqa shu kabi yo'llar bilan amalga oshirilsa, bu iqtisodiy unumdorlikni tashkil qiladi.

Yerdan olinadigan hosil ko'proq manashu yerning tuproq unumdorligini saqlash va uni oshirish, ya'ni insonning ,aniqrog'i ishchi kuchining, jonli mehnatning yerga faol ta'siri bilan bog'liq bo'ladi.

Yerga egalik jismoniy va huquqiy shaxslarning ma'lum yer uchastkasiga tarixan tarkib topgan asoslardagi yoki qonun xujjatlarida belgilangan tartibdagi egalik huquqini tan olishini bildiradi. Yerga egalik deganda, avvalo, yerga bo'lgan mulkchilik huquqi va uni iqtisodiy jihatdan realizatsiya qilish ko'zda tutiladi. Yerga egalikni yeri bo'lgan mulkdor(bizda davlat)amalga oshiradi. O'zbekiston Rtspublikasining "Yer kodekisida" takidlanganidek, "Yer uchastkalari yuridek va jismoniy shaxslarga doimiy va muddatli egalik qilish hamda ulardan foydalanish uchun berilishi mumkin".

Yerdan foydalanish huquqi, bu o'rnatilgan urf-odatlar yoki qonuniy tartibda undan foydalanishni bildiradi. Yerdan foydalanuvchi yer egasi bo'lishi shart emas. Real xo'jalik hayotida yerga egalik qilish va yerdan foydalanishni ko'pincha har xil jismoniy va huquqiy shaxslar, xususan hozir bizda dehqon va fermer xo'jaliklari amalga oshiradi.

Renta nazariyasi hzircacha to'liq yoritilib berilmagan nazariyalardan hisoblanadi. Iqtisodchilar o'rtasida uning mohiyatini tushuntirish bo'yicha turlicha yondashuv va qarashlar mavjud bo'lib, ularning ayrimlari noaniqligicha qolmoqda. Shu sababga ko'ra, rentani miqdoriy aniqlash vauning mohiyatini tushuntirish bo'yicha asosiy va ko'pincha bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan nazariyalarga duch kelamiz.

Renta nazariyasini dastlab fiziokratlar maktabining asoschilari F.Kene va Tyurgolarning ilmiy asarlarida ko'rib chiqilgan. Ular rentaning vujudga kelish sabablarini tabiat, yerning qandaydir sirli kuchi, tabiat ehsoni, yerning qo'shimcha mahsulot yarata olish qobiliyati natejasi orqali izohlaganlar. Ular qishloq xo'jalik mahsulotlarini yaratishda, jumladan, sof va qo'shimcha mahsulot yaratishda tabiat rolini ko'rsatishga harakat qilganlar.

Keyinchalik renta nazariyasining asoslari klassik iqtisodchilar U.petti,

J.Anderson, A.Smit va D.Rekardolar tadqiqotlarida turli darajada takomillashtirilgan. Jumladan, Anderson defferensial renta to'g'risidagi qarashlarni ilgari surgan, biroq rentaning tovar qiymatining bir qismi ekanligini tushintirib berolmagan. Rikardo esa fiziokratlardan farqli o'laroq, rentaga mahsulot ijtimoiy va individual qiymatlari o'rtasidagi farqi sifatida qarab, renta nazariyasini qiymatining mehnat nazariyasi, qiymat qonuni bilan bog'lagan.

Renta nazariyasini rivojlantirishda rus iqtisodchilaridan N.G.Chernishevskiy va N.I.Ziberlar salmoqli hissa qo'shganlar.

Hozirgi vaqtda Rossiyada "Iqtisodiyot nazariyasi" bo'yicha chop etilgan qator o'quv qo'llanma va darsliklarda ham yer rentasi munosabatlari keng bayon etilmoqda.

Renta munosabatlarini qarab chiqishda rentaning ijara haqidan farqiga e'tiborni qaratish zarur. Agar ijaraga beriladigan yerga oldin bino' inshoot va shu kabilar qurish bilan bog'liq ravishda kapital qo'yilmalar sarflanmagan bo'lsa, ijara haqi va renta miqdoran bir-biriga to'g'ri keladi. Aks holda, ijara haqi yer rentasidan farq qiladi. Ijara haqi quyidagilardan iborat: yerdan foydalanganlik uchun to'lanadigan renta(R); yerga ilgari sarflangan kapital uchun foiz(r); yer uchastkasini ijaraga bergunga qadar unga qurilgan inshootlar amortizatsiyasi(A). Buni formulada quyidagicha yozish mumkin:

$$IH = R + r + A$$

3.Yer rentasi va uning turlari

Yer rentasi yer egaligini iqtisodiy jihatdan amalga oshirish (realizatsiya qilish)ning shaklidir. Yer rentasining bir qancha tarixiy ko'rinishlari mavjud. Masalan, uch shakldagi: barshchina (ishlab berish), obrok (natural soliq) va pul solig'i shakllaridagi feodal rentalari shular jumlasidandir. Hozirgi paytda turli mamlakatlarda mavjud renta vujudga kelish sabablari va shart-sharoitlariga qarab quyidagi turlarga ajratiladi:

absolyut yer rentasi, differentsial (tabaqalashgan) renta I va II, monopol renta, qazilma boyliklar, qurilishlar joylashgan yerlardan olinadigan renta.

Rentaning mohiyatini tushunishdagi asosiy qiyinchilik tadbirkorlar o'rtasida qayta taqsimlanmaydigan qo'shimcha sof daromadning vujudga kelishi shart-sharoit va sabablarini ochib berilishi hisoblanadi. Bunday holat vujudga kelishining sabablaridan biri samarali xo'jalik yuritish uchun yaroqli bo'lgan yerlarning cheklanganligi va qayta tiklab bo'lmasligida o'z ifodasini topadi. Ikkinchi sababi - yerga yoki boshqa tabiiy resursga mulkchilik ob'ekti yoki xo'jalik yuritish ob'ekti sifatidagi monopoliyaning mavjuddigi hisoblanadi. Uchinchi sababi esa, ko'p mamlakatlarda qishloq xo'jaligidagi kapital uzviy (organik) tuzilishi, ya'ni doimiy va o'zgaruvchi kapital o'rtasidagi nisbatning pastligi hisoblanadi.

Farmonda shirkat, fermer va dehqon xo'jaliklarining teng huquqligini saqlab qolgan fermer xo'jaliklarini ustuvor rivojlantirishga alohida urg'u berildi. Jadvalda bir miqdorga ega bo'lgan, lekin hosildorligi turlicha, uch xil yer uchastkalari misol qilingan. Misolda bu uch xil yer uchastkalaridan olingan mahsulotning ijtimoiy qiymati bir xil, ya'ni 14000 so'mni tashkil qiladi. Yalpi hosildorlik yaxshi yer uchastkasida 30 tonna, o'rtacha yer uchastkasida - 25 va yomon yer uchastkasida 20 tonnani tashkil qiladi. Har bir uchastkadan turlicha hosil olinganligi tufayli ularda yetkazilgan mahsulotlarning individual qiymati ham turlicha bo'lib chiqadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifati yomon uchastkada yetishtirilgan mahsulot narxida sotiladi, ya'ni misolimizda bu narx 700 so'mni tashkil qiladi. Natijada yomon yer uchastkasi o'zining yakka ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash va foyda olish imkoniga ega bo'ladi. O'rtacha va yaxshi yer uchastkalarida esa yomon yer uchastkasiga nisbatan 3500 va 7000 so'm miqdorida qo'shimcha daromad olinadi.

Yer rentasi (nem. Rente — ortga qaytarilgan) — yer egasining o'z yerini tabiiy resurs tarzida ijaraga taqsim etganligi uchun oladigan daromadi; bevosita qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari tomonidan yaratilgan qo'shimcha mahsulotning yer egalari tomonidan mulk egaligi huquqiga ko'ra o'zlashtiriladigan qismi. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer maydonlari tabiatan cheklanganligi sababli inson yer

resurslarini ko'paytirishga qodir emas, barcha yerlar mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar tomonidan egallab olinadi va yerga xo'jalik ob'yekti sifatida monopoliya vujudga keladi. Natijada yer bilan bog'liq renta munosabatlari paydo bo'ladi.

Qishloq xo'jaligida yer egasi foydalanuvchilardan yerdan foydalanganlik uchun to'lov oladi, ya'ni yer egasi (davlat, shirkat, xususiy shaxs) faqat yer egasi bo'lganligi uchun yaratilgan qo'shimcha mahsulotning bir qismini ijara haqi ko'rinishida o'zlashtirib oladi. Davlat oladigan yer solig'i, xususiy yer egalari yerdan foydalanganlik uchun undiradigan to'lovlar yer rentasi hisoblanadi.

Hozirgi davrda Yer rentasining asosan, differensial renta va absolyut renta ko'rinishlari mavjud. Yer uchastkalarining tabiiy va iqtisodiy unumdorligi hamda joylashgan o'rnidagi farqlar natijasida olinadigan qo'shimcha sof daromad — differensial renta deyiladi (q. Differensial renta). Ko'pgina mamlakatlarda sifatidan qat'i nazar ekin ekiladigan yerning xususiy mulk bo'lishi uni ijarachilarga foydalanish uchun berishdan muqarrar suratda daromad keltiradi.

Yer egalari yerni ishlovchi ijarachilarga foydalanish uchun ijaraga berishi va ulardan yerdan foydalanganlik uchun to'lovlar olishi natijasida absolyut yer rentasi vujudga keladi. Shuningdek, rentaning yana bir turi — monopol renta ham mavjud. Boshqa yerda uchramaydigan tabiiy sharoit, ba'zan noyob qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish uchun imkoniyat yaratadi. Bunday mahsulotlar monopol narxlarda sotiladi. Bu narxlarning yuqori bo'lishi ko'pincha to'lovga qodir talab darajasi bilan belgilanadi. Natijada monopol narxlar shunday mahsulotlarning individual qiymatidan ancha yuqori bo'lishi mumkin. Bu esa yer egalariga monopol renta olish imkoniyatini beradi (yana. q. Renta).

Shunday qilib, rentao'zturlaridan qat'iynazar, uto'lovchilar uchun xarajat, yeregalari uchun esa daromad hisoblanadi. Ubirtomondan, doimiy xarajatlarni shakllantirsa, ikkinchi jihatdan, qat'iy belgilangan daromadni tashkil etadi. Mulkdan haq to'lash sharti bilan ma'lum muddat foydalanish yuzasidan kelib chiqadigan munosabatlar ijara munosabatlari deb ataladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida yer faqat ijaraga berilmay sotiladi va sotib olinadi. Yerga xaridor uni yer keltiradigan daromad uchun sotib oladi. Ya'ni noaniq uzoq vaqt davomida doimo barqaror ravishda daromad olishga bo'lgan huquq sotib olinadi. Sotiladigan yer uchastkalarining bahosi bevosita u keltiradigan ijara haqi bilan bog'liq. Ssuda protsentiga ham bog'liq.

Agrosanoat birlashmalari va kombinatlari agrobiznesning yana bir turlaridir. Agrosanoat birlashmalari bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi va unga bog'liq ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi bir necha xo'jalik hamda korxonalarni birlashtiradi. Masalan, bog'dorchilik va uzumchilik bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklar, ular mahsulotni qayta ishlovchi sex va zavodlar, yetkazib beruvchi savdo-sotiq korxonalari bir texnologik jarayonga birlashib agrosanoat birlashmalarini tashkil qiladi. Birlashma ishtirokchilari ishlab chiqarish, xo'jalik va moliyaviy mustaqilliklarini saqlab qolishi bilan birga, ularning umumiy mulki ham tarkib topib boradi. Agrosanoat kombinatlari qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va iste'molchiga yetkazib berishgacha barcha texnologik jarayonga xizmat qiluvchi xo'jalik va korxonalarning ma'lum bir hududida birlashuvidir. Agrobiznes turiga ko'ngilli vapaychilik mablag'lari asosida tashkil qilingan turli xil uyushma va ittifoqlarni ham kiritish mumkin.

Qishloq xo'jaligida davlat korxonalari, jamoa xo'jaliklari va shirkatlari, turli xil mulkchilik asosida tashkil qilingan ko'shma korxonalar ham agrobiznes turlari sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Differensial renta - yer uchastkalarining unumdorligidagi va joylashgan joyidagi farqlar natijasida vujudga keladigan qo'shimcha sof daromad. Differentsial renta I yerning tabiiy unumdorligi bilan bog'liq bo'lgan, sanoat markazlariga, bozorlarga va aloqa yo'llariga yaqin joylashgan serunum yer uchastkalarida vujudga keladi.

Misolimizdagi uch xil yer uchastkalaridan olingan mahsulotning ijtimoiy qiymati bir xil, ya'ni 10000 so'mni tashkil qiladi. Yalli hosildorlik A uchastkasida 20 tonna, B va V uchastkalarda 25 va 30 tonnani tashkil qiladi. Har bir uchastkadan turlicha hosil

olinganligi tufayli ularda yetkazilgan mahsulotlarning individual qiymati ham turlicha bo'lib chiqadi. ya'ni, A uchastkasida har bir mahsulot birligining qiymati 500 so'm bo'lsa, B uchastkasida 400 so'm, V uchastkasida esa 333 so'mni tashkil qiladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifati yomon uchastkada yetishtirilgan mahsulot narxida sotiladi (misolimizda 500 so'm). Natijada yomon yer uchastkasi (A) o'zining yakka ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash va foyda R. olish imkoniga ega bo'ladi. O'rtacha (B) va yaxshi (V) yer uchastkalarida esa yomon yer uchastkasi (A)ga nisbatan 2500 va 5000 so'm miqdorda qo'shimcha daromad olinadi.

Bu olingan qo'shimcha daromad yerning tabiiy unumdorligi bilan bog'liq bo'lgan differentsial renta I ni tashkil qiladi. Differentsial renta II xo'jaliklarni intensiv rivojlantirish, yerning hosildorligini oshirish uchun qo'shimcha xarajatlar sarf qilish bilan, ya'ni qishloq xo'jaligida kimyoviy o'g'itlarni qo'llash, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish darajasi bilan bog'liq holda vujudga keladi.

Differentsial renta II ning hosil bo'lishi

Misolimizda yerga qo'shimcha 5 ming so'm xarajat sarf qilish natijasida qo'shimcha 20 tonna mahsulot olinsa, u holda birinchi yilga nisbatan qo'shimcha olingan 10 ming so'm daromad differentsial renta II ni tashkil etadi. Bunday intensiv rivojlanish qishloq xo'jaligida bosh yo'l hisoblanadi. Chunki qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirmay turib, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni va jamiyat a'zolarining o'sib borayotgan talabini qondirib bo'lmaydi. Shuning uchun ham qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish uchun alohida e'tibor beriladi. Buning uchun qishloq xo'jaligini agrar sanoatlashgan asosga qo'yish, intensivlashtirishni tezkorlik bilan amalga oshirish choralari ishlab chiqilishi lozim. Keyingi yillarda mamlakatimizda qishloq xo'jaligini zamonaviy texnika bilan ta'minlash uzluksiz o'smoqda. Qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish uchun ajratilgan kapital mablag'lar ham ortmoqda. Agar hamma joyda bir xil xarajat qilinib, hosildorlik bir xil oshirilsa edi, unda hech qanday differentsial renta II bo'lmas edi. Gap shundaki, yer birligiga sarflangan bu

xarajatlar turli hududlarda, viloyatlarda, xo'jaliklarda turlicha darajada amalga oshiriladi va natijada hosildorlik ham turlicha oshadi.

Qishloq xo'jalik mahsulotining ijtimoiy qiymati bilan yakka tartibdagi qiymati o'rtasidagi tafovut xo'jaliklarning ustama qo'shimcha mahsulotini tashkil qiladi. ya'ni, differentsial rentaning har ikkala ko'rinishini (renta I va II ni) o'z ichiga oladi. Differentsial renta I va II mahsulotning muayyan ijtimoiy qiymati bilan zona bo'yicha yoki alohida olingan xo'jalikning individual qiymati o'rtasidagi tafovutdan iboratdir.

Shu hosil qilingan daromadlar davlat bilan xo'jalik o'rtasida taqsimlanadi. Uning davlatga to'langan qismi yer rentasi ko'rinishini oladi (chunki bizda yer davlat mulkidir).

Differentsial renta I yuqorida qarab chiqilganidek, xo'jaliklar faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tabiiy sharoitda vujudga keladi. Shuning uchun ham qishloq xo'jaligi korxonalarida hosil qilingan bu xildagi renta yer davlat mulki bo'lganligi sababli uning manfaatlari yo'lida sarf qilish maksadida markazlashtirilgan davlat fondida (byudjetida) to'planishi lozim. Bu hol o'rta va yaxshi unumli yerda joylashgan xo'jaliklarning iqtisodiy manfaatdorligiga putur yetkazmaydi, balki boshqa xo'jaliklar bilan ozmi-ko'pmi iqtisodiy sharoitlarni tenglashtirish imkonini beradi. Markazlashtirilgan davlat fondiga o'ttan bu mablag'larni (differentsial renta I), mamlakat oldida turgan vazifalarni amalga oshirish, xususan yangi yerlarni o'zlashtirish va yer unumdorligini oshirish bilan bog'liq bo'ltan tadbirlarni amalga oshirish uchun yo'naltirilishi mumkin bo'ladi. Differentsial renta II yerdan intensiv foydalanish, ya'ni uning iqtisodiy qismi xo'jaliklarning o'zlarida qoldirilishi mantiqan to'g'ri bo'ladi. Uning faqat bir qismi davlat fondiga jalb qilinishi mumkin, chunki davlat ma'lum darajada bu rentaning hosil qilishda o'z hissasini qo'shadi, ya'ni transport yo'llari qurilishiga, irrigatsiya-melioratsiya ishlarini amalga oshirish uchun kapital mablag'lar sarflaydi, texnikalar, kadrlar, mineral o'g'itlar yetkazib beradi. Shunday qilib, differentsial renta I va differentsial renta II yer egasi bo'lgan davlat bilan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida taqsimlanadi.

Absolyut renta.Ko'pgina mamlakatlarda qishloq xo'jaligida yerga xususiy mulkchilik monopoliyasi sharoitida ishlab chiqarishni olib borishga to'g'ri keladi. Hozirgi davrda yerga xususiy mulkchilik bilan bir qatorda boshqa mulkchilik shakllari ham mavjud. Masalan, davlat mulki, vaqf (machit, cherkov) mulklari va boshqalar. Yerga bo'lgan bu mulkchilik (shaklidan qat'iy nazar) monopoliyasi ijaraga beriladigan barcha yer uchastkalarining sifatidan qat'iy nazar, yer egalariga absolyut renta, deb atalgan rentani olishga imkon beradi.Absolyut yer rentasining vujudga kelish mexanizmi shundan iboratki, yer egalari yerni ishlovchi ijarachilarga foydalanish uchun ijaraga beradilar va ulardan yerdan foydalanganlik uchun to'lovlar oladilar. Mana shu to'lov absolyut yer rentasi deb nom olgan.Agar yer ijaraga berilganda shu yerda turli xil inshootlar, binolar qurilgan bo'lsa, ularning ijara haqi alohida hisoblanadi. Tarixan shunday bo'lib qolganki, ko'pgina mamlakatlarda, jumladan, bizning mamlakatimizda ham qishloq xo'jaligidagi kapitalning uzviy tuzilishi sanoatdagidan pastdir.Shuning uchun qishloq xo'jaligida yaratilgan tovarlarning bozor qiymati ishlab chiqarishning ijtimoiy qiymatidagi qo'shimcha qiymat miqdori jamiyatda shakllangan o'rtacha foydadan ortiq bo'ladi.Qishloq xo'jalik tovarlarining bozor narxi bilan ijtimoiy ishlab chiqarish narxi o'rtasidagi bu tafovut absolyut renta manbai bo'lib xizmat qiladi. Renta nazariyasiga ko'ra qishloq xo'jaligida rentaning yana bir turi monopol rentaham mavjud bo'ladi. Boshqa yerda uchramaydigan tabiiy sharoit, ba'zan noyob qishloq xo'jalik mahsulot lari (uzumning alohida navlarini, tsitrus ekinlari, choy va hokazolarning alohida turlarini) yetishtirish uchun imkoniyat yaratadi. Bunday tovarlar monopol narxlar bilan sotiladi.Bu narxlarning yuqori bo'lishi ko'pincha to'lovga qodir talab darajasi bilan belgilanadi.Natijada monopol narxlar shunday mahsulotlarning individual qiymatidan ancha yuqori bo'lishi mumkin.Bu esa yer egalariga monopol renta olish imkonini beradi.

Monopol renta - alohida tabiiy iqlim sharoitiga ega bo'lgan, noyob qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiriladigan yerlardan olinadigan renta. Bunday renta noyob mahsulotlar (choy, kofe, sitrus o'simliklar mevasi, maxsus qizil yog'och va boshq.) yetishtirilishidan paydo bo'ladi. Noyob mahsulotlarning taklifi oz bo'lsada, talabi katta.

Ushbu mahsulotlarning taklifi o'zgaruvchan bo'lmaydi, chunki ular narxining o'zgarishi, ularni oz yoki ko'p ishlab chiqarishni ta'minlay olmaydi. Shu sababli kamyob mahsulotlar monopol narxda sotiladiki, bu narx ishlab chiqarishga ketgan xarajatlardan ancha yuqori turadi, natijada yer egalari monopol renta olishga muvaffiq bo'ladilar. Bunday renta sharoiti noyob yerlar uchun, boshqalariga qaraganda, yuqori ijara haqi belgilanishida ifoda etiladi.

Undirma sanoatda renta - foydali qazilma konlarining joylashishi va ularning boyligidagi farqlar natijasida vujudga keladi.

Yer osti qatlamida foydali qazilma boyliklarning joylashganligi jihatidan ham, konning boyligi jihatidan ham bir-biridan farq qiladi. Xuddi qishloq xo'jaligiga o'xshab, o'rta, yaxshi va o'ta yaxshi konlarda ish yurituvchi korxonalar mavjud. Qazilma boyliklarni yerdan ajratib bo'lmaydi, uning ustidagi boylik yer bilan birgalikda mulk hisoblanadi. Mulk egasi undan o'zigina foydalansa qo'shimcha foyda oladi. Konni ijaraga olgan sub'ekt mulk egasiga undan foydalanganligi uchun renta to'laydi. Undirma sanoatdagi renta tuproq hosildorligiga emas, balki yer qa'ridagi qazilma boyliklarning oz ko'pligi, sifati, qazib olish xarajatlariga bog'liq bo'ladi.

Renta miqdoriga ta'sir etuvchi omillar

- Yerning unumdorligi;
- Foydalanishda bo'lgan yerlarda yetishtiriladigan qishloq xo'jalik mahsulotlarining bozor narxi;
- Birgalikda foydalanadigan boshqa resurslarning narxlari va unumdorligi;

Agrosanoat majmuasi (ASM) - bu qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish, uni saqlash, qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berish bilanshug'ullanuvchi iqtisodiyot tarmoqlaridir. ASM to'rtta sohani o'z ichiga oladi. Birinchi soha-

qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarish vositalari yetkazib beradigan sanoat tarmoqlari, shuningdek, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga texnika xizmati ko'rsatish bilan band bo'lgan tarmoqlar; ikkinchi soha - qishloq xo'jaligining o'zi; uchinchi soha - qishloq xo'jaligi mahsulotlarini iste'molchiga yetkazib berishni ta'minlaydigan tarmoqlar (tayyorlash, qayta ishlash, saqlash, tashish, sotish); to'rtinchi soha - odamlar hayoti va faoliyatining umumiy sharoitlarini ta'minlaydigan infratuzilma (yo'l-transport xo'jaligi, aloqa, moddiy-texnika xizmati, mahsulotni saqlash tizimi, ombor va transpirt xo'jaligi)dan iborat. Ishlab chiqarish infratuzilmasi bevosita ishlab chiqarishga xizmat qiladigan tarmoqlarni, ijtimoiy infratuzilma odamlar turmush faoliyatining umumiy sharoitlarini ta'minlaydigan sohalarni (uy-joy, madaniy-maishiy xizmat, savdo, umumiy ovqatlanish va hokazo) o'z ichiga oladi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Qishloqni yangilash va qayta qurish chora-tadbirlari tizimida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish juda katta ahamiyatga ega» . Shu sababli Respublikada qishloq ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish hamda qishloq aholisini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash dasturini amalga oshirish davom ettirilmoqda.



4.O'zbekistonda agrar islohotlar va ularni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari

Respublikamiz Prezidenti I.Karimov so'zlagan nutqida iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo'nalishlariga to'xtalib, "Qishloq xo'jaligida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va uning barqaror rivojlanishini ta'minlash bundan buyon ham g'oyat muhim masala bo'lib qoladi," - deb ta'kidladi va mavjud muammolarning yechimini topishni XXI asr boshidagi dolzarb masala qilib qo'ydi.

O'zbekistonda agrar islohotlarning negizi yerga bo'lgan mulkchilik masalasidir. Respublika Konstitutsiyasida yer xususiy mulk qilib sotilishi mumkin emasligi, balki uni uzoq muddatli ijaraga shartlari bilan topshirish mumkinligi ta'qiqlangan.

Islohotlarning ilk bosqichida mamlakat qishloq xo'jaligi barqarorligini ta'minlash va rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki asoslari yaratiladi. Bunda ustuvor yo'nalish qilib shaxsiy tomorqa xo'jaliklarini rivojlantirish belgilangan edi. Ular ixtiyoridagi yer maydonlari 1989 – 1995 yillarda ikki barobarga ko'paydi.

Natijada aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlashda va qishloq xo'jaligini rivojlantirishda barqarorlikka erishildi. Tarmoqda mulkni davlat tasarrufidan chiqarishga va xususiylashtirishga muhim ahamiyat berildi. Jumladan, 1066 ta davlat xo'jaliklari (sovxozlar) tugatilib, ular negizida jamoa xo'jaliklari tashkil etildi. Chorvachilik fermalari, bog' va tokzorlar, kichik yer maydonlari hamda issiqxonalar xususiylashtirildi. Islohotlarning ikkinchi bosqichida "Yer kodeksi", "Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida", "Fermer xo'jaligi to'g'risida", "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi qonunlar va tegishli Hukumat qarorlari qabul qilinib, me'yoriy hujjatlar tasdiqlandi.

Bunday huquqiy bazaning yaratilishi agrar islohotlarni chuqurlashtirishga

zamin yaratdi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning xalqaro andozalar va xalqimiz mentalitetiga mos keladigan - shirkat, fermer va dehqon xo'jaliklaridan iborat modeli tanlandi.

Yer munosabatlarida yangi tamoyillar joriy qilindi. Shirkat xo'jaliklarida ekin maydonlarini, bog' va tokzorlarni oila pudratchilariga tanlov asosida uzoq muddatga ijaraga berish amalgam oshirila boshlandi. Yerni fermer xo'jaliklariga 50 yilgacha va dehqon xo'jaliklariga umrbod foydalanishga berish tizimi yaratildi. Tarixan shunday bo'lib qolganki, ko'pgina mamlakatlarda jumladan, bizning mamlakatimizda ham qishloq xo'jaligidagi kapitalning uzviy tuzilishi sanoatdagidan pastdir. Shuning uchun qishloq xo'jaligida yaratilgan tovarlarning bozor qiymati ishlab chiqarishning ijtimoiy qiymatidagi qo'shimcha qiymat miqdori jamiyatda shakllangan o'rtacha foydadan ortiq bo'ladi. Qishloq xo'jalik tovarlarining bozor bahosi bilan ijtimoiy ishlab chiqarish bahosi o'rtasidagi bu tafovut absolyut renta manbayi bo'lib xizmat qiladi.

Yurtimizda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning kelajagi haqida gapirganda, er va suv resurslari bo'yicha imkoniyatlarimiz cheklanganini hisobga olib, bu borada yagona to'g'ri yo'l – qishloq xo'jaligini intensiv asosda rivojlantirish, erlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilash, seleksiya ishlarini chuqurlashtirish, yuksak samarali zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish va suvdan oqilona foydalanish, eng muhimi – dehqon va fermerlarning dardi bilan yashash, desam, o'ylaymanki, barchangiz mening fikrimga qo'shilasiz.

Faqat erga mehr, uning unumdorligini oshirish va birinchi navbatda dehqon va fermerga doimiy e'tibor, ularning manfaati haqida g'amxo'rlik qilish – bu qishloqni va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish bo'yicha biz tanlagan yo'ldir. Agrar islohotlarning 1998 yildan boshlangan ikkinchi bosqichida Oliy Majlisning IX sessiyasida (1998 yil 28-30 aprel) O'zbekiston Respublikasining “Yer kodeksi to'g'risida”gi, “Qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari) to'g'risida”gi, “Fermer xo'jaliklari to'g'risida”gi, “Dehqon xo'jaliklari to'g'risida”gi, Qonunlar qabul qilindi. Bunday huquqiy bazaning

yaratilishi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga zamin yaratdi.

Islohotlarning uchinchi bosqichi 2000 yildan boshlandi. Bu bosqichda birinchi navbatda past pentabelli va zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarni fermer xo'jaliklariga aylantirish asosida qayta tashki etish mexanizmining joriy etilishi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga xizmat ko'rsatuvchi zamonaviy infratuzilma tizimining barpo etilishi bilan tavsiflanadi. Faqat 2000-2003 yillarda 336 ta, shu jumladan 11 ta tumanda shirkat xo'jaliklari to'liq tugatilib, ular negizida 20 mingdan ortiq fermer xo'jaliklari tashkil etildi. Ushbu chora-tadbirlarning natijasi o'laroq, 2004 yilda O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklari soni 104 mingga yaqinlashdi (2003 yilda 87,5 ming edi), ularga biriktirilgan yer maydoni 2935,3 ming gektarni tashkil etib (2003 yilda 2148,1 ming ga), bir fermerga to'g'ri keladigan yer maydoni 28,2 gektargayetdi. Ayni vaqtda dehqon xo'jaliklarining umumiy soni 4,5 mln. taga, ularga biriktirilgan yer maydoni esa 682,5 ming gektarga yetdi. Bugungi kunda yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining 59,7 foizi dehqon xo'jaliklari, 20,4 foizi fermer xo'jaliklari, 19,9 foizi qishloq xo'jaligi korxonalari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika ta'minotini yaxshilash maqsadida yangi texnika, o'g'it, yoqilg'i va moylash materiallari yetkazib berishni yaxshilash bo'yicha davlat dasturi ishlab chiqilgan va u bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Jumladan, chet ellardan (AQSH, Germaniya) yuqori mehnat unumdorligiga ega bo'lgan paxta teradigan, g'alla o'radigan (Keys) kombaynlari keltirildi. Ularning ayrim turlari va ehtiyot qismlarini o'zimizda ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

O'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlardan ko'zda tutilgan bosh maqsad qishloqda haqiqiy mulkdorlar sinfini, yer va mahsulotning haqiqiy egalarini shakllantirishdir. Qishloq joylarda tadbirkorlikni rivojlantirish orqali qishloq xo'jalik korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish asosiy masalalardan hisoblanadi.

Ilg'or mamlakatlar tajribasiga ko'ra, qishloq xo'jaligining yuqori darajada rivojlanishi avvalo sanoat rivoji bilan bog'liqdir. Ma'lumki, AQSH hamda Yevropaning bir qator rivojlangan mamlakatlarida aholining 4-5 foizini tashkil etadigan, zamonaviy texnika va texnologiyaga ega bo'lgan fermer xo'jaliklari o'z xalqini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan to'liq ta'minlab qolmasdan ularning bir qismini eksportga ham chiqaradilar. Hozirgi vaqtda respublikamiz xalq xo'jaligida ish bilan band bo'lgan 3,8 mln. aholining salkam yarmi hamon qishloq xo'jaligi sohasida mehnat qilmoqda. Kelajakda ana shu ortiqcha mehnat resurslarini sanoatga, xizmat ko'rsatish sohalariga jalb etish iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishi bo'lib qolishi lozim.

2008 yildan boshlab mamlakatimizda qariyb 1 million 500 ming gektar sug'oriladigan erning meliorativ holati yaxshilandi, er osti suvlari yuqori bo'lgan maydonlar 415 ming gektarga yoki salkam 10 foizga qisqardi, kuchli va o'rtacha sho'rlangan maydonlar 113 ming gektarga kamaydi.

Xabaringiz bor, o'tgan yili 2013-2017 yillarda sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar davlat dasturini qabul qildik. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari, barcha manfaatdor idoralar, Fermerlar kengashi va avvalambor fermer xo'jaliklarining o'zi ushbu dasturda ko'zda tutilgan chora-tadbirlarning so'zsiz bajarilishini ta'minlashi darkor. Vazirlar Mahkamasi mazkur dastur ijrosi ustidan tizimli nazorat o'rnatsin.

**Respublikaqishloq
xo'jaligidamulkchilikningquydagishakllarimavjud**


*Kooperativ(jamoaxo'jaliklari,
xo'jaliklararokorxonalar, shirkatuyushmalari, davlat
xo'jaliklarinegizidatashkiletilganxo'jaliklar,
jamoamulkigaaylantirilganfermalarva
boshqalar).*

*Davlat(davlatxo'jaliklari, naslchilikzavodlari,
o'quvtajribahamdatajriba
xo'jaliklari)*


*Xususiy(dehqonvafermerxo'jaliklari,
xususilashtirilgankorxonalar)*

Aholiningshaxsiyyordamchixo'jaliklari

**Davlatehtiyojlariuchunpaxtavag'allaetishtiruvchiqishloqxo'jalikkorxonalarigaa
jratilganimtiyozlikreditlar,
mln. so'm**



**Xosildorligi past
yerlardadavlatixtiyojlariuchunmahsulotyetishtiriuvchifermerxo`ja
liklarigadavlatbuydjetlaridanajratilayotgansubsidiyalarqiymati,
mlrd. so`m**



O'zbekiston Respublikasida yerik shoxli qora mollar soni 2011yilda 9642,5ming boshni tashkil etadi. Jumladan, sigirlar - 114,6ming bosh, qo'y va echkilar - 846,6ming bosh, parrandalar - 4997,9ming boshni tashkel etadi.

Sigirlarning 94,7 % dexqon xo'jaliklarida, 4,5 % fermer xo'jaliklarida, qo'y va echkilar mos ravishda – 80,5va 7,4 %, cho'chqalar 79,5va8,5 %, parrandalar – 60,3 va 11,6 % tashkil etadi.

2011yilda barcha xo'jaliklar bo'yicha tirik vazinda 1564,2ming tonna go'sht, 6766,2ming tonna sut, 3441,7mln.dona tuxum, 28,7ming tonna jun yetishtirilgan.

Donli o'simliklar band etgan maydonjahonda ekin maydonlarining 50 foizini tashkil qiladi. Yiliga dunyoda 2,0mlrd. Tonnage yaqin don yetishtiriladi. Bu jon boshiga 3,1s dan to'g'ri keladi. Don asosiy oziq-ovqat maxsuloti bo'lib, sanoat uchun xom ashyo hisoblanadi.

Jahonmiqyosidadonmahsulotlarietishtirishdarajasi aholining oʻsib borish darajasidan yuqori surʼatda rivojlanmoqda. Chunonchi, jon boshiga haryili 3-4 dan etishtirilmoqda.

Donning import etuvchi mamlakatlar Gʻarbiy Evropa mamlakatlari hisoblanadi.

Chetga chiqariladigan don mahsulotining 95% don holatida, bugʻ doymahsulotining 8% un holatida eksport qilingan.

Fransiya oʻzida etishtiriladigan donning 30% eksport qiladi.

Donning yirik sotib oluvchisi Xitoy, Vetnam, Laos, Hindiston, Bangladesh, Shri-Lanka, Indoneziya hisoblanadi.

Paxta texnik ekinlar orasida eng koʻp etishtiriladi. 1 tonna paxta xom ashyosidan 300-400 kg tola, 100 kg moy, 200-250 kg kunjara va boshqa mahsulotlar olinadi. Hozirgi sharoitda jahon boʻyicha etishtirilgan 20 mln. tonna tola 30% eksport qilinadi.

Dunyo boʻyicha paxta etishtirish salmogʻi mamlakatlar boʻyicha quyidagicha: Xitoy – 24%, AQSH – 20%, Hindiston – 13,4%, Pokiston – 9%, Oʻzbekiston – 6,3% va boshqalar – 23,4%.

2011 yilda mamlakatimizda 3500 ming tonnadan ortiq paxta yetishtirilgan.

Xulosa

Oxirgi besh yilda ilk marotaba paxtadan eng ko'p 3,5 mln tonna hosil yetishtirildi. Bunga qulay ob-havo sharoitlari, ekin maydonlarining ko'payishi, agrotexnik tadbirlarning o'z vaqtida amalga oshirilishi, hosildorlikning oshganligi hamda fermer xo'jaliklarida paxta yetishtirishning ortganligi natijasida erishildi. Joriy yilda o'tgan yilga nisbatan don mahsulotlari 532,1 ming t., kartoshka 28,5 ming t., sabzavotlar 181,4 ming t., poliz mahsulotlari 42,8 ming t., mevalar 97,6 ming t., uzum 52,5 ming tonnaga ko'paydi. Chorvachilikda ham o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Ko'rinib turibdiki, qishloq xo'jaligi mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Unda insoniyat hayoti uchun eng zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat tarmoqlari uchun xom ashyo ishlab chiqariladi. Aholi uchun zarur bo'lgan tovarlar bozorini to'ldirish uchun qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish darkor. Boshqa sohalar kabi qishloq xo'jaligida ham takror ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida muayyan iqtisodiy aloqa va munosabatlar sodir bo'ladi.

Yer maxsus resurs. U boshqa omillardan tubdan farq qiladi. Tengi yo'q ishlab chiqarish vositasi ekanligi tufayli uni boshqa biror narsa bilan almashtirib bo'lmaydi.

Yerning yana bir muhim xususiyati uning ko'chmasligidir. Yer uchastkalarini bozorga, iste'molchilarga yoki suv manbalariga yaqin bo'lishini qanchalik xohlamaylik uni ko'chira olmaymiz.

Yer foydalanish jarayonida yeyilmaydi, eskirmaydi. Aksincha agar undan to'g'ri foydalanilsa, uning unumdorligi oshib boradi.

Respublika qishloq xo'jaligida tub burilishlarning huquqiy asoslarini yaratish uchun qabul qilingan qonunlar:

“Yer to'g'risida”, “o'zbekiston respublikasida tadbirkorlik to'g'risida”, “Ijara to'g'risida”, “Dehqon xo'jaliklari to'g'risida”, “Yer solig'I to'g'risida”,

“Kichik biznes vaxususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag’batlantirish to’g’risida”, o’zbekiston Respublikasining “Yer kodekisi”, “Qishloq xo’jaligi kooperativi to’g’risida”, “Fermer xo’jaligi to’g’risida”gi qonunlar qishloq xo’jaligida ko’p ukkladli iqtisodiyot poydevorini yaratishga yo’l ochadi.

“Prezidentimiz Islom Karimov 2013-yil 18-yanvarda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilgi mo’ljallangan eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan majlisidagi mamlakatimizda fermerlik harakatini qo’llab quvatlash uchun huquqiy tashkiliy hamda moliyaviy shart sharoitlarni tug’dirib berishgani katta omil ekanligini takidladilar.”¹ Iqtisodiyotimizning 2014 yilga mo’ljallangan asosiy vazifa va ustuvor yo’nalishlari avvalo bu sohaning yuqori sur’atlar bilan o’sib borishini ta’minlash, buning uchun mavjud barcha rezerv va imkoniyatlarni safarbar etish borasida qabul qilingan strategiyani davom ettirishga qaratilgan.

YAlpi ichki mahsulot hajmini 8,1 foizga, sanoatni 8,3 foizga, qishloq xo’jaligini 6 foizga, chakana savdo aylanmasini 13,9 foizga ko’paytirish, bozor xizmatlarini 16,2 foizga oshirgan holda, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 55 foizga etkazish ko’zda tutilmoqda.

1. I.A.Karimov “Bosh maqsadimiz-keng ko’lamli islohatlar va modernizatsiya yo’lini qat’iat bilan davom ettirish” Toshkent oqshomi. 2013-yil 21-yanvar

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. - T.: O'zbekiston. 1999. .
2. O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi qonuni. 1998 yil 30 aprel.
3. O'zbekiston Respublikasining "Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida"gi qonuni. 1998 yil 30 aprel.
4. Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.2003 yil 24 mart.1.
- 5.Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: O'zbekiston. 1995.
- 6.KarimovI.A.Qishloqxo'jaligitarqqiyoti-to'kinxayotmanbai.T.:O'zbekiston. 1998.
7. O'zbekiston Respublikasining "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi qonuni. 1998 yil 30 aprel.
8. A.O'lmasov, M.Sharifxojaev. Iqtisodiyot nazariyasi.T. 1995 y.
9. A.O'lmasov, A. Vahobov.Iqtisodiyot nazariyasi.T.: Sharq. 2006.
10. D.Tojiboeva. Iqtisodiyot nazariyasi.I-qism.T. 2002.
11. D.Tojiboeva. Iqtisodiyot nazariyasi.II-qism. T. 2003.
12. N. Beknozov. Iqtisodiyot nazariyasi. / /Darslik. - T. 2005 y.
- 13.U.Umarov. Iqtisodiyot nazariyasi. / /O'quv qo'llanma. T.: Meros. 2004.
14. Sh. Shodmonov, R.Alimov, T.Jo'raev Iqtisodiyot nazariyasi.T. 2002.
15. Sh. Shodmonov, U.V.G'afurov.Iqtisodiyot nazariyasi.
- 16.Sangirov Ravshan. Mustaqil o`zbekistoning agrar siyosati: yutuqlari va muomolari. Toshkent 2013-yil
- 17.www.forex.com
- 18.www.tenfore.ru
- 19.www.forex-rdc.ru
- 20.www.telekurs.ru
- 21.www.eSignal.com
22. www.stat.uz

